

THE THEORY OF EXERCISES IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING AND ITS PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE

Maftuna AVALBOYEVA

PhD student

Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan

СНЕТ ТИЛИ О'ҚИТИШДА МАШҚЛАР НАЗАРИЯСИ ВА УНИНГ ПЕДАГОГИК АНАМИЯТИ

Maftuna AVALBOYEVA

Tayanch doktorant

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O'zbekiston

ТЕОРИЯ УПРАЖНЕНИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ И ЕЁ ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ

Мафтуна АВАЛБОЕВА

Базовый докторант

Узбекский государственный университет мировых языков
Ташкент, Узбекистан maftunka0710@gmail.com

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Avalboyeva M. The theory of exercises in foreign language teaching and its pedagogical significance. //O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2024. — 10-jild, № 6. — B. 211-225.

<https://doi.org/10.36078/1735442308>

Received: October 30, 2024

Accepted: December 17, 2024

Published: December 20, 2024

Copyright © 2024 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Abstract. The theory of exercises and their unparalleled role in language acquisition have been significant throughout various periods of foreign language learning. Exercises play a crucial role in the language learning process, not only expanding grammar and vocabulary but also greatly influencing the development of the language's social, emotional, and cognitive potential. Additionally, effectively systematizing exercises and examining various classifications are very important for this field. Proper application of exercises in foreign language teaching methodology is the key to students' success. The scientific novelty of the article lies in its exploration of the relationship between the theory and practice of exercises, a comparison of various scholars' approaches, and an analysis of the methodological aspects of their application in modern education. Additionally, the article includes proposals for evaluating foreign language exercises in the context of social and cognitive development, as well as suggestions for enhancing the effectiveness of exercises through the integration of modern technologies. The scientific foundations of the theory of exercises and their effective application are crucial in teaching foreign languages. The research aims to systematize and classify exercises, analyze various scholars' approaches, and determine the sequence of integrating exercises into the teaching process. Furthermore, the study is focused on delving deeper into the types of exercises in foreign language teaching and their pedagogical significance, as well as developing effective methods. This article addresses the following tasks: scientifically analyzing the main concepts of the theory of exercises and their role in the educational process; exploring the effective use of exercises

for communicative purposes in foreign language teaching; considering psychological and methodological approaches in organizing exercises during instruction; comparing different scholars' classifications of exercises and their approaches; and developing new methodologies to enhance the effectiveness of language teaching through practical exercises.

Keywords: exercise; exercise theory; exercise classification; exercise types; language material; types of speech activity.

Annotatsiya. Chet tili o'rganishning turli davrlarida mashqlar nazariyasi va uning til o'rganishdagi o'rni beqiyos bo'lib kelgan. Til o'rganish jarayonida mashqlarning ahamiyati katta bo'lib, nafaqat grammatika va so'z boyligini kengaytirishga, balki tilning ijtimoiy, hissiy va kognitiv salohiyatini rivojlantirishga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, tilni o'rganishda mashqlarni samarali tizimlashtirish va turli tasniflarni ko'rib chiqish, bu soha uchun muhim ahamiyatga ega. Chet tilini o'qitish metodikasida mashqlarni to'g'ri qo'llash o'quvchilar muvaffaqiyatining garovidir. Maqolaning ilmiy yangiligi shundaki, unda mashqlar nazariyasi va amaliyoti o'rtasidagi bog'liqlik, turli olimlarning yondashuvlari solishtirilgan va ulardan zamonaviy ta'limda foydalanishning metodik jihatlari yoritilgan. Bundan tashqari, maqolada chet tili mashqlarini ijtimoiy va kognitiv rivojlanish kontekstida baholash, shuningdek, zamonaviy texnologiyalarni integratsiyalash orqali mashqlar samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflar kiritilgan. Mashqlar nazariyasining ilmiy asoslari, ularning samarali qo'llanilishi chet tili o'qitishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda mashqlarni tizimlashtirish va tasniflash, turli olimlarning yondashuvlarini tahlil qilish hamda mashqlarni o'qitish jarayoniga kiritish ketma-ketligini aniqlash maqsad qilib qo'yilgan. Bundan tashqari, tadqiqot chet tili o'qitishda mashq turlari va ularning pedagogik ahamiyatini chuqurroq o'rganish va samarali metodlarni ishlab chiqishga qaratilgan. Ushbu maqolada quyidagi vazifalar ko'rib chiqiladi: mashqlar nazariyasining asosiy tushunchalarini va ularning ta'lim jarayonidagi o'rni haqida ilmiy asosda tahlil qilinadi; chet tili o'qitishda mashqlarni kommunikativ maqsadlarda samarali qo'llashni o'rganish; o'qitishda mashqlarni tashkil etishda psixologik va metodik yondashuvlarni ko'rib chiqish; turli olimlarning mashqlarni tasniflash va ularga bo'lgan yondashuvlarini taqqoslash; amaliy mashqlar yordamida til o'rgatishning samaradorligini oshirish uchun yangi metodikalarni ishlab chiqish.

Kalit so'zlar: mashq; mashqlar nazariyasi; mashqlar tasnifi; mashq turlari; til materiali; nutq faoliyati turlari.

Аннотация. Эффективная систематизация упражнений и рассмотрение различных классификаций имеет важное значение в процессе обучения иностранному языку. Правильное применение упражнений в преподавании иностранного языка является залогом успеха студентов. Научная новизна статьи заключается в том, что в ней освещена взаимосвязь между теорией и практикой упражнений, проведено сравнение подходов различных ученых и раскрыты методические аспекты их использования в современном образовании. В статье представлены также предложения по оценке упражнений в изучении иностранных языков в контексте социального и когнитивного развития, а также по повышению их эффективности через интеграцию современных технологий. В исследовании поставлены следующие задачи: систематизация и классификация упражнений, анализ подходов различных ученых и последовательность введения упражнений в процесс

обучения. Исследование направлено на более глубокое изучение видов упражнений в обучении иностранным языкам и их педагогическое значение, а также разработку эффективных методов. В статье рассматриваются следующие задачи: анализ основных понятий теории упражнений и их роль в учебном процессе; изучение эффективного применения упражнений в коммуникативных целях при обучении иностранным языкам; рассмотрение психологических и методических подходов в организации упражнений в обучении; сравнение классификаций упражнений различных ученых и их подходов; разработка новых методик для повышения эффективности обучения с помощью практических упражнений.

Ключевые слова: упражнение; теория упражнений; классификация упражнений; виды упражнений; языковой материал; виды речевой деятельности.

Kirish

Mashqlar nazariyasi metodika fanining ajralmas qismi hisoblanadi. Biron yangi bilimni o'zlashtirishda o'rganish jarayonini mashqlarsiz tasavvur qilish qiyin. Biz mashqlar nazariyasi deganda, ta'lim va tarbiya jarayonida o'qitish va o'rganish jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun mashqlarni tashkil etish, ishlab chiqish va ularni tahlil qilish bilan shug'ullanuvchi ilmiy sohani tushunamiz. Mashq tushunchasi juda umumiy ma'noda qo'llaniladi. Biroq, biz uning jismoniy ma'nolaridan holi ravishda, yangi bilim olishda, xususan til o'rganishdagi o'rni va vazifalari xususida so'z yuritamiz.

Har bir til materialini o'zlashtirishda mashqlar muhim o'rin tutadi. Mashqlar — bu insonni faqat biror mahoratga o'rgatishdan tashqari, uning ijtimoiy, hissiy va kognitiv salohiyatini rivojlantirish uchun xizmat qiladigan murakkab tizimdir. Shuningdek, ularning maqsadi faqat bilim yoki ko'nikmalarni rivojlantirishda emas, balki ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirishda, madaniy va emotsional rivojlanishda ham muhim o'rin tutadi. O'rganish jarayonida mashqlar faqatgina bilim olish emas, balki insonning mantiqiy tafakkuri, qaror qabul qilish jarayonlari va o'zini o'zi nazorat qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Mashqlar orqali inson yangi vaziyatlarga qanday javob berishni, resurslarni qanday taqsimlashni va o'z tanlovlarini qanday optimallashtirishni o'rganadi. Masalan, chet tili o'rganishda bajariladigan mashqlar nafaqat grammatik, fonetik, leksik ko'nikmalarni shakllantiradi, balki madaniyatga oid bilimlarini oshiradi, murakkab qarorlar qabul qilish uchun zarur bo'lgan malakalarni ham o'zlashtiradi.

Til o'rganayotganda turli xildagi va qiyinchilikdagi mashqlarni bajarish muhimdir. Bu borada turli olimlar o'zlarining mashqlar tasnifini ishlab chiqqanlar. Quyida biz mashq tushunchasining nazariy jihatlarini xususida so'z yuritib, rus va o'zbek olimlarining mashqlar klassifikatsiyalarini ko'rib chiqamiz.

Asosiy qism

Biron tilni o'rganish, yangi ilmni o'zlashtirish, olgan bilimlarni mustahkamlashda mashqlar bajarish muhim ahamiyat kasb etadi. "Pedagogika ensiklopediyasi"da mashqqa quyidagicha ta'rif berilgan: "Mashq (arabcha – husnixat, rasm chizish uchun namunalar) — biror

faoliyatni puxta o'zlashtirish yoki sifatini yaxshilash maqsadida ko'p marta takrorlash. Mas., o'qish, yozish. Mashq ta'limda ko'nikma va malakalar hosil qilishda muhim o'rin tutadi" (99, 198). Ya'ni o'rgatilishi ko'zlanayotgan mavzu yuzasidan tuzilgan talablar bo'lib, u yangi mavzuni o'zlashtirish, uni oson yodda saqlash va boshqa turli maqsadlarni o'z ichiga oladi. O'.Hoshimov, I.Yoqubov o'zlarining "Ingliz tili o'qitish metodikasi" kitobida mashqqa quyidagicha ta'rif beradi: "Biz mashq deganda, nutq yoki tilga oid ishlarni bir necha maxsus tashkil qilingan o'quv sharoitida bajarilishini tushunamiz" (4, 42). Mashq chet tilini o'rgatishdagi elementar birlik bo'lib, u psixologik, didaktik, metodik tushuncha hisoblanadi. I. L. Bim mashq deganda, "darsda o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro ta'sirning muayyan o'quv materiali vositasida amalga oshiriladigan va ma'lum tuzilishga ega bo'lgan shaklini tushunadi"(13, 31). E. G. Azimov, A. N. Shukinlar metodik terminlar lug'atida mashqni quyidagicha izohlaydi: "O'quv jarayonida foydalaniladigan o'quv materialini metodik tashkil qilishning tarkibiy birligi. Mashq yordamida material bilan bog'liq amallar bajarilishi va shu asosda fikrlash jarayonlari shakllanishi ta'minlanadi. Mashqlar maqsadga yo'naltirilgan, o'zaro bog'liq harakatlardan iborat bo'lib, ular til va operatsion qiyinchiliklar darajasi ortib borish tartibida, nutqiy ko'nikmalar va malakalarning rivojlanish ketma-ketligi hamda real nutq aktlarining xususiyatlarini hisobga olgan holda bajarish uchun taklif etiladi" (11, 322). Mashqlar til o'rganish va yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Ular ta'lim jarayonida ko'nikma va malakalarni shakllantirish, bilimlarni mustahkamlash hamda fikrlash jarayonlarini rivojlantirish uchun asosiy vositadir.

Olimlar tomonidan mashqlarga berilgan ta'riflar bir-birini to'ldiradi. Barcha ta'riflar mashqlarning maqsadga yo'naltirilganligi, o'quvchilarning ko'nikmalarini rivojlantirishdagi muhim o'rnini va ularning real nutq aktlari bilan bog'liqligini tasdiqlaydi. Mashqlarni to'g'ri tashkil etish va ulardan samarali foydalanish til o'rgatishda muvaffaqiyatning asosiy sharti hisoblanadi.

Mashqlar ko'nikma va malakalarni yaratishda muhim o'rin tutadi. Mashqlar to'g'ri qo'llanilishi va yaxshi samara berishi uchun ma'lum tizimga solingan bo'lishi kerak. Chet tilini o'qitishda mashqlar tizimini ishlab chiqish, ularni nazariy tomondan klassifikasiyalash ya'ni tasniflash va ta'lim jarayoniga kiritish ketma-ketligini belgilash muhimdir. "Ma'lumki mashqlarni tizimlashtirish deganda, ularning tasnifi va tarkibiga nisbatan katta va kichik guruhlariga bog'lanishi tushuniladi" (1, 53). Mashqlarning turli xil belgilariga ko'ra bir qator klassifikasiyalar mavjud. Mashqlarni tizimlashtirish mashq jarayonini boshqarish va samaradorligini oshirish uchun zarur. Tizimlashtirish — bu mashqlarni turli kategoriyalarga ajratish, ularning maqsadi, mohiyati yoki ishlatilishi bo'yicha guruhlariga ajratishni anglatadi. Masalan, o'quvchilarga oddiy va murakkab mashqlarni berish, har bir mashqni aniq maqsadga yo'naltirish muhimdir.

Xorijiy tillarni o'qitishda mashqlar tipologiyasi XX asrning 70–80 yillarida mashqlar tizimi konsepsiyasi ishlab chiqilishi bilan paydo bo'ldi. Mashqlar nazariyasi va amaliyoti bilan bir qator olimlar shug'ullanganlar. Jumladan, I. V. Raxmanov (23), M. S. Ilin (1717), B. A. Lapidus (1919),

I. L. Bim (13), V. M. Beldiyan (1212). Xorijda esa Penni Ur (10), Rod Ellis (22), Stefen Krashen (8), mamlakatimizda M. Jusupov (15,16), J. J. Jalolov (5), T. Sattorov, A. Soynazarov, E. Erkayev (3) va boshqa olimlar o'z nazariyalari bilan fanga xissa qo'shganlar. V. A. Buxbinder mashqlarni informatsion, operatsion, motivatsion turlarga ajratadi. Bu mashqlarni hozirgi kundagi talablarga moslashtirib shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi, takomillashtiruvchi deb atashimiz ham mumkin. Chunki birinchi bosqich mashqlari bilimni shakllantirishga, ikkinchi bosqich mashqlari ko'nikmani rivojlantirishga, hamda uchinchi bosqichda esa olingan bilim va ko'nikmalar takomillashtiriladi. O'zbek olimi J. Jalolov o'zining "Chet tili o'qitish metodikasi" darsligida chet tili o'qitishda mashqlar tizimi shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi va takomillashtiruvchi turlarga bo'linish haqida aytib o'tib, har bir mashqa turlariga quyidagicha ta'rif beradi: "Shakllantiruvchi mashq til materialini o'zlashtirishda, rivojlantiruvchi mashq nutqda til materialining qo'llanilishida va takomillashtiruvchi mashq chet tilda fikr bayon etish va o'zga shaxs fikrini idrok etib tushunish maqsadida bajariladi, ya'ni bilim olish, ko'nikmani egallash va malakani o'zlashtirishga mo'ljallangan mashqlar, deb qaraladi" (5, 14).

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib, quyidagi xulosaga kelish mumkin:

Shakllantiruvchi mashqlar — yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, o'quvchilarning asosiy nazariy bilim bazasini shakllantiradi.

Rivojlantiruvchi mashqlar — o'quvchilarning tahliliy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, olingan bilimlarni turli kontekstlarda qo'llash imkoniyatini yaratadi.

Takomillashtiruvchi mashqlar — ilgari o'zlashtirilgan ko'nikma va bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga xizmat qiladi.

E. Erkayev (3, 15) mashqlar nazariyasiga oid tadqiqot ishida til materialiga doir mashqlarni reseptiv va reproduktiv mashqlarga ajratadi. Reseptiv mashqlar o'qish va tinglab tushunishni, reproduktiv mashqlar esa gapirish va yozish kabi nutqiy faoliyatlarni yaxshilashini hisobga olsak, ularni til materialiga doir mashqlar emas, balki nutq mashqlari deb atash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Rus olimi I. V. Raxmanov mashqlarni tasniflash jarayonida ularni o'zaro tur va guruhlariga ajratadi. Ular quyidagicha: "til va nutq, reseptiv va reproduktiv, o'quv va haqiqiy kommunikativ, aspektli va kompleksli, tayyorlovchi va nazorat; mashqlarni bajarish usullariga ko'ra: og'zaki va yozma, bir tilli va ikki tilli, mexanik va ijodiy, sinfda bajariladigan va uyda bajariladigan, yakka holda, juftlikda hamda sinf bilan bajariladigan mashqlar; materialning xarakter xususiyatiga ko'ra monolog va dialog mashqlariga ajratadi" (2323, 73). Jumladan, shulardan juftlikda bajariladigan mashqlarga darslikda keltirilgan quyidagi mashqni misol qilish mumkin:

Work in pairs. Ask and answer.

e.g. A: What music do you like?

B: I like pop music, but I don't like rock. And what about you? (67, 43)

Mashqlarni bajarish usuliga ko'ra quyidagi mashqni og'zaki tarzda bajarish mumkin:

Answer the questions.

Do you know the story “Susambil”?

Where do the animals want to go? Why? (66, 92)

V. M. Beldiyan esa mashqlarni quyidagicha tasniflaydi: “Til sistemasi haqidagi bilimlarni shakllantiruvchi mashqlar, til materialini tahlil qila olish mashqlari, nutq faoliyati malakalarini shakllantiruvchi, nutqiy kommunikativ malakalarni ishlab chiquvchi mashqlar” (1112, 38). Ye. I. Passov maktabi vakili Lipetskaya (222, 78) mashqlarning 2 turini ajratadi:

- Til mashqlari.
- Nutq mashqlari.

Til mashqlariga quyidagi turlar kiradi: 1) grammatik mashqlar;

Quyidagi fe'llarni o'tgan zamonga aylantiring.

Do, go, sell, buy, wake, tell, sleep, say, read.

Namuna uchun: *do-did va hok.*

Sifatlarning orttirma va qiyosiy darajasini hosil qiling.

Fast, clean, clear, easy, young, small, dangerous, beautiful, wonderful.

Namuna uchun: *fast-faster, dangerous-more dangerous va hok.*

Qavs ichidagi so'zlarni to'g'ri zamonda qo'llang:

We ... 10 girls and 10 boys (interview). The boys ... more TV than the girls (watch). The graph ... boys watch TV for more than 20 hours per week (show). They also ... the news and sports programmes (like).

Masalan: We have interviewed 10 girls and 10 boys.

2) leksik mashqlar;

1-jadvaldagi so'zlarning antonimini aniqlang.

Masalan: young – old.

1- jadval

| | |
|-------------|-----|
| young | old |
| small | |
| ugly | |
| important | |
| tidy | |
| shallow | |
| fat | |
| interesting | |

Bo'sh joyni mazmunan mos so'zlar bilan to'ldiring.

Charlie Chaplin is one of the most famous.... in the history of movies. He was born in ... into a London family. During the era of silent ... , he was often called “the ... man in the world”. He was a man with a small He became famous for his character (77, 93).

Masalan: Charlie Chaplin is one of the most famous actors in the history of movies.

3) fonetik mashqlar;

Nuqtalar o'rniga tushirib qoldirilgan harflarni qo'ying.

Mot...er, environ...ent, brea...fast, fa...ily, fan...astic, st...ange, ...omantic, ave...age.

Masalan: mother.

Nutq mashqlari tilni o'rgatishda til ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar bo'lib, ular o'quvchilarga nutqiy malakalarini amaliyotda sinash imkonini beradi. Quyidagi misollar nutq mashqlari sifatida keltirilishi mumkin:

1) gaplarni o'qish;

I was tired. I had a busy day. I sat in front of the TV and began to watch a film. It was very exciting. I was in the Amazon.

2) intervyu olish yoki berish;

O'quvchilar bir-biriga yoki o'qituvchi o'quvchilarga savollar beradi va tegishli javoblar olinadi. Masalan, Sizning sevimli kitobingiz nomi? Qayerda yashaysiz? kabi savollarga javob olinadi.

3) rasmga asoslangan suhbat;

O'quvchilar biror rasmni ko'rib, unga oid savollarga javob berishadi. Masalan: Rasmda kimlar bor? Qaysi fasl tasvirlangan? va shu kabi savollar orqali suhbatni davom ettirishadi.

4) rol o'ynash (Role-playing):

O'quvchilar turli rollarni o'ynasha orali (sotuvchi va mijoz), o'zaro suhbat qurishadi. Masalan: Siz do'konda xarid qilishni boshladingiz, sotuvchi sifatida savollar bering.

5) matnni o'qish va mazmunini so'zlab berish;

O'quvchilar matnni o'qib, uning mazmunini qayta aytishlari yoki uni boshqa so'zlar bilan ifodalashlari kerak. Maqola yoki hikoya qilish orqali voqea-hodisani so'zlab berishlari kerak. Masalan: O'zingizning eng yodda qolgan sayohatingizni aytib bering.

6) monolog nutq so'zlash;

O'quvchilar boshqa odamlar yoki mashhurlarning hayoti haqida gapirishadi. Masalan: Sizni ilhomlantirgan inson haqida gapiring.

Bu mashqlar o'quvchilarga nutq ko'nikmalarini mustahkamlash va yaxshilash imkonini beradi, shuningdek, o'quvchilar o'z fikrlarini aniq va to'g'ri ifodalashga undaydi.

Ba'zi olimlar leksik, grammatik va fonetik mashqlarni "og'zaki nutqning asosi" deb hisoblaydi. Til mashqlari biron bir hodisaning ma'no, shakl va qo'llanilishi haqidagi bilimlarni mustahkamlaydi. Til mashqlari o'z tabiati va xarakteristikasiga egadir:

- Til mashqlari bilimlarni tadbiiq qilish prinsipiga asoslangan bo'lib, ular qoidaga murojaat qilib turishni ko'zda tutadi.

- Til mashqlari faqat og'zaki bajarish uchun mo'ljallanmagan. Agar shunday bo'lgan taqdirda, ular og'zaki nutq mashqlari emas, balki oddiy so'zlashuv, aniqrog'i materialni o'qish hisoblangan bo'lar edi.

- Til mashqlari vaqt nuqtai nazaridan tejamkor emas. Bir dars mobaynida shunday mashqlarning 3–4 tasinigina bajarish mumkin xolos.

- Til mashqlari ba'zida o'quvchilar uchun qiziq bo'lmaydi. Lingvistik manipulyatsiya esa ko'pchilikni qiziqtiradi. Kostomarov V. tabiatan tilshunos bo'lmagan va umuman ilmiy kitoblarni o'qishni yoqtirmaydiganlarning sarguzasht asar o'rniga lug'at o'qiyotganlarini kuzatgan. Bunda lingvistik manipulyatsiyaning ta'siri kuchlidir.

- Til mashqlari situativ holatlarni o'z ichiga olmaydi. So'zlovchining oldida nutq topshirig'i emas, til ya'ni rasmiy topshiriq maqsadi turadi.

Til mashqlari til o'rgatish jarayonida muhim o'rin tutadi, chunki ular o'quvchilarga bilimlarni mustahkamlash va amaliyotda qo'llash imkoniyatini yaratadi. Umuman olganda, til mashqlarining samaradorligi ularning to'g'ri tashkil etilishi va maqsadga yo'naltirilgan bo'lishiga bog'liq.

Passov E.I yuqoridagi til tabiatidan kelib chiqib, til mashqlari faqatgina nutqni emas, balki yozuvni, tallaffuzni, murakkab sintaktik strukturalarni o'rgatishda ham qo'l keladi deb hisoblaydi va yuqoridagilardan farqli o'laroq, til mashqlarining ko'p ishlatiladigan turlarini keltirib o'tgan (21):

1) tarjima mashqlar;

Tarjima mashqlari darsliklarda quyidagicha o'z aksini topgan: Quyidagi matnni tarjima qiling:

The Olympic Games have their own flag and motto. The flag is white with five circles. The circles represent the five continents of Africa, Asia, Australia, Europe, and North and South America. The circles are black, blue, green, red, and yellow. The flag of every country in the games has at least one of these colours. The motto of the Olympics is faster, higher, stronger (7, 75).

2) transformatsion (bir shakldan ikkinchi shaklga o'tkazish) mashqlari;

Quyidagi gapni so'roq gapga aylantiring.

Kuni kecha shahrimizda tuman miqyosidagi sport musobaqasi bo'lib o'tdi.

3) to'g'ri tartibda joylashtirish (подстановочные) mashqlari;

Bu turdagi mashqlar G. Palmer (2020) tomonidan birinchi bo'lib ishlab chiqilgan. Bunda o'quvchilar har bir qatorida keltirilgan so'zlarni to'g'ri tartibda joylashtirib yangi gap hosil qilishlari kerak.

Masalan:

2-jadval

| | | | | |
|----|-------------|----------|---------------|------------|
| 1. | Gulmira | o'qidi | kecha | xatni |
| 2. | Mening onam | yozdi | bugun ertalab | telegramma |
| 3. | O'qituvchi | jo'natdi | dushanba kuni | kitob |

4) savol-javob mashqlari;

Savol javob mashqlari eng ko'p tarqalgan mashq turidir. Bunday mashqlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular nutq mashqlari bo'libgina qolmasdan, grammatik, leksik va fonetik jihatdan yo'nalgan bo'ladi; bajarish usuli oddiy, ya'ni savol beriladi va javob qaytariladi; tez sur'atda ishlashga yo'naltiriladi.

Masalan: *What colour do you like? What number do you like?*

Nutq mashqlari esa o'z navbatida quyidagi mashqlarga bo'linadi:

- shartli nutq mashqlari;
- haqiqiy nutq mashqlari;

E. I. Passov **shartli nutq mashqlariga** hikoya, tasvirlash, munosabatni ifodalash, baholash kabilarni kiritadi. Bunday mashqlar muloqotda insonning nima demoqchiligini aytishga undashi kerak. Masalan: "Kelasi zamonga aylantiring" jumlasini o'rniga, "men kecha nima qilganligimni so'zlab beraman, siz esa ertaga nima qilishim haqida so'raysiz" ko'rinishida bo'ladi. Bu usul bilan tinglovchining bevosita nutqqa munosabat bildirishi ko'zlanadi.

Haqiqiy nutq mashqlari nutq faolligi va erkinligini oshiradi, soʻzlovchining strategiya va taktika imkoniyatlarini taʼminlaydi. Masalan: “Siz koʻp kitob oʻqiyasiz. Siz oʻqigan oxirgi kitoblaringizdan qay birini menga oʻqishni tavsiya qilasiz?” Bu mashqda strategik topshiriq-tavsiya qilishdir. Shu yoʻl bilan mashqni hayotga bogʻlash maqsad qilib olinadi.

Shuningdek, oʻzbek olimlaridan, mashqlar haqida oʻz darsligida qisqacha toʻxtalib oʻtgan O. Hoshimov, I. Yoqubovlar chet tillarini oʻqitishda qoʻllaniladigan mashqlar tizimini toʻrt kichik tizimga ajratadi (4, 67):

- 1) gapirishni oʻrgatadigan mashqlar;
- 2) tinglab tushunishni oʻrgatadigan mashqlar;
- 3) oʻqishni oʻrgatadigan mashqlar;
- 4) yozuvni oʻrgatadigan mashqlar.

Mashqlar tizimi oʻz navbatida mashq tiplariga, mashq tiplari esa mashq turlariga boʻlinadi. Oldin metodistlar mashqlarni 2 ta tipga, yaʼni til va nutq mashqlariga boʻlib oʻrgangan. E. I. Passov tasnifiga koʻra hozirgi kunda mashqlarni quyidagi tiplarga ajratishadi (21, 103):

- Kommunikativ boʻlmagan mashqlar.
- Shartli (oʻquv) kommunikativ mashqlar.
- Haqiqiy (tabiiy) kommunikativ mashqlar.

M. Choriyev esa “Ingliz tili leksikasiga oʻrgatishning lingvodidaktik va injener-lingvistik asoslari” nomli dissertatsiyasida birgina leksikani oʻrgatadigan mashqlarni quyida keltirilayotgan turlarga, guruhlarga ajratadi (1, 56):

- Maʼlum guruhdagi soʻzlar qoʻllanishi doirasida yuzaga keladigan nutqiy faoliyat turlariga koʻra farqlanadigan mashqlar, yaʼni retseptiv va reproduktiv mashqlar.

- Soʻzning alohida jihatlarini, yaʼni fonetik, grafik, orfografik xususiyatlarini oʻrgatishga yoʻnaltirilgan mashqlar.

- Soʻz aloqalarining maʼlum koʻrinishlarini namoyon etishga yoʻnaltirilgan mashqlar.

- Alohida ajratilgan soʻz yoki birikmadagi soʻz bilan ishlashga moʻljallangan mashqlar (matnli va nomatniy mashqlar).

- Oʻrganilayotgan soʻz ishtirok qilayotgan sintaktik tuzilmaning tabiatiga (gap yoki soʻz birikmasi) nisbat farq qiluvchi mashqlar.

- Soʻz qoʻllashga undovchi omillar, yaʼni savollar, buyruqlar, noaniq, tasdiq gaplar va boshqalar.

- Tillar boʻyicha farq qiluvchi omillar bir va ikki tilli mashqlar.

- Oʻrganiluvchi soʻz ustida ishlashning turli usullari (soʻzlar oʻrnini almashtirish, kerakli soʻzni tanlab olish, boʻsh qolgan joyni toʻldirish va hokazo).

- Mashqlarning mantiqiy predmet asosini tashkil qiluvchi omillar.

- Soʻzning mashqlarda qoʻllanishining asoslanganligi.

- Maʼno va shakl elementlarining mashqlar tarkibida tutgan oʻrni (“lisoniy” va “nutqiy” mashqlar).

- Mashqni bajarishga ishtirok etuvchilar soniga nisbatan (dialogik va monologik leksik mashqlar).

- Mashq bajarilishida ilgari “tayyor” soʻzlar bilan shugʻullanish yoki uni mustaqil tuzilishini talab qilinishi.

Bu mashqlarning bir-biriga yaqin turlarini o'zaro birlashtirib uchta yirik tasnifni yaratish mumkin:

1. Nutqiy faoliyat turlariga nisbatan guruhlanishi.
2. So'zning alohida jihatlari-fonetik, grafik, orfografik va boshqalar ustida ishlashga yo'naltirilgan mashqlar.
3. Ma'lum turdagi so'z aloqasini shakllantirishga yo'naltirilgan mashqlar tasnifi.

Og'zaki nutqni o'stirish uchun quyidagi mashqlar farqlanadi.

Reproduktiv mashqlar. Ularga savol-javob mashqlari, dialog so'rov, namunaga qarab dialog tuzish, tayyor dialogni juftlikda ijro etib berish, tanish holatni tasvirlagan holatda dialog tuzish va hok.

Produktiv mashqlar. Bunday mashqlarga mavzu yuzasidan savol berish va ularga javob qaytara olish, berilgan yoki tanlangan mavzu yuzasidan hikoya tuzish, biror mavzu yuzasidan suhbatda ishtirok etish, turli xil ijodiy situativ o'yinlarda ishtirok etish va boshqalar kiradi.

G. A. Kitaygorodskayaning fikriga ko'ra, mashqlar nutq faoliyati (tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish) ni o'zlashtirishning asosi hisoblanib, bir qator umumiy xarakteristikalariga ega (1818, 89):

- Aniq bir darsga bog'liq bo'lgan topshiriqlarning bosqichma-bosqich mashqlari;
- Situativlilik;
- Takrorlanganlik ya'ni kommunikativ topshiriqni hal etishning ko'p karraligi;
- Nutq faoliyati turlarining barcha ko'rinishlarni o'qitishda tarbiyaviy, ta'limiy va rivojlantiruvchi maqsadlarini ta'minlash

O'zbek olimlaridan, professor M. Djusupov (14, 85) ham o'zining mashqlar tipologiyasini ishlab chiqqan bo'lib, ularni quyidagilarga ajratadi:

- Tilning sistemasi haqidagi bilimlarni shakllantirishga oid mashqlar.
- Tilning dinamikasi haqidagi bilimlarni shakllantirishga oid mashqlar.
- Nutq faoliyatining ko'nikma va malakalarini shakllantiruvchi mashqlar.

Mashqlar tipologiyasi o'z navbatida til o'rganish darajasi, ta'lim bosqichlari, o'quvchilarning psixolingvistik xususiyatlariga ko'ra mashqlar guruhini ham o'z ichiga oladi. Ularning eng asosiylari quyidagilar:

- Psixologik prinsipga asoslangan mashqlar tizimi.
- Psixolingvistik prinsipga asoslangan mashqlar tizimi (til va muloqot, situativ va situativ bo'lmagan, nutq va nutq oldi mashqlari).
- Lingvistik prinsipga asoslangan mashqlar tizimi (til va nutq mashqlari).
- Til muloqotidagi ko'p vazifali tushunchalarga asoslangan mashqlar tizimi.

Djusupovning fikriga ko'ra, agar yuqorida aytib o'tilgan mashqlar tipologiyasining 3 turi ham kompleks mashqlar deb hisoblansa, til sistemasi va dinamikasi haqidagi bilimlarni shakllantirishga oid mashqlarni tayyorlovchi mashqlar, uchinchi tipni esa asosiy mashqlar deb atash mumkin.

Shunday qilib yuqorida keltirilgan mashqlar nazariyasi va klassifikatsiyalari turli mashq tiplari, guruhlarini o'z ichiga olgan.

1-mashq. Quyidagi noekvivalent leksik birliklardan foydalanib, dialog tuzing:

Emu, jacket, window-shopping, kilt, kookaburra, pelican, hamburger, pizza, spaghetti, triathlon, trampoline, karate.

Tasavvur qiling siz:

- 1) sport markazida;
- 2) kiyimlar do'konida;
- 3) oziq-ovqat do'konida;
- 4) hayvonot bog'ida.

Mashqni bajarish uchun namuna:

Assistant: Can I help you?

Customer: I am just window-shopping. I'd like to know the cost of this jacket. How much is it?

Assistant: It is \$35.

Customer: Thank you!

2-mashq. Quyidagi so'zlardan foydalanib qisqa hikoya tuzing:

Menu, Miss, pageboy, penny, top hat, P.S., scrambled eggs, take-away food, fringe, babysitter.

3-mashq. Tasavvur qiling siz biror kimdan nimanidir so'rashingiz kerak.

Berilgan so'roq so'zlarni gaplarga moslashtiring.

| | | |
|--------------------|---|--|
| Could | ↘ | I have this kilt, please? |
| Can | | you like some cappuccino? |
| Would | ↗ | I try those jeans on? |
| Do you mind | | passing the compact disk, please? (6, 66). |

4-mashq. Quyidagi so'zlarni kerakli bo'shliqlarga to'g'ri shakllardan foydalangan holda joylashtiring: Jacket, county, p.m, fringe, babysitter, comprehensive school

1. Can I try thison?
2. Britain has more than 90
3. The club meets at 2:00-3:00... every Thursday
4. I like my ... long
5. Secondary schools are much larger than primary schools and most children- over 80 percent- go to a at the age of 11.
6. You need a for your girl aged 6 from 5 to 8 every day, except Sunday.
7. On young people pick flowers and put them in their homes.

Til o'rganishda tilni tushunish (grammatika, leksika, fonetika) va nutq faoliyati (gapirish, yozish, tinglash) o'rtasidagi o'zaro aloqaning mustahkamlanishi o'quvchilarning tilni to'liq o'zlashtirishiga yordam beradi. Bunda tilni tushunish (nazariya) va nutq faoliyati (amaliyot) bir-birini to'ldiradi va o'rganish jarayonini yanada samarali qiladi.

Grammatika, leksika va fonetika — tilning asosiy strukturalaridir. Nutq faoliyatiga oid mashqlarni bajarishda bu malakalardan samarali foydalanish

yaxshi natijalarga olib keladi. Grammatik, fonetik va leksik mashqlarni o'rganish, tilni tushunishni va to'g'ri ishlatishni mustahkamlash uchun zarur.

Grammatikani tushunish va uni amalda qo'llash orasidagi bog'liqlikni rivojlantirish o'quvchilarning to'g'ri va aniq gapirish, yozish va tinglash ko'nikmalarini ham shakllantiradi. Grammatikani to'g'ri o'zlashtirish o'quvchilarga sintaksisni (jumla tuzish) va morfologiyani (so'z shakllarini) to'g'ri ishlatishga imkon beradi. Masalan, o'quvchi fe'lning zamonlarini yoki shaxs-sonda qo'llanilishini bilsa, bu ularning gapirish jarayonida to'g'ri va aniq jumlar qurishga yordam beradi. Grammatika o'rganish jarayonidagi mashqlar, masalan, gaplarni to'g'ri zamonda yoki shaxs-sonda qo'llash, o'quvchilarni grammatik bilimlarini oshiradi va kamroq xato qilishga o'rgatadi. Masalan, o'quvchilarga bir qator gaplar berib, ularga hozirgi zamon, kelasi zamon va o'tgan zamondagi shakllarda jumlar tuzishlarini so'rash. Bu turdagi mashqlar grammatikani tushunishni yaxshilash va uni amaliyotda qo'llashga imkon beradi. Grammatikani to'g'ri tushungan o'quvchilar yozma nutqda o'z fikrlarini aniq va to'g'ri ifodalashda qiynalmaydi. Murakkab jumlar yaratishda, masalan, qo'shma gaplar yoki ko'makchi fe'llardan foydalanish, yozuvni murakkab va mazmunli qiladi. Masalan, o'quvchilarga grammatik strukturalardan foydalanib, turli mavzularda insho yozishni topshirish. Bu nafaqat grammatikani mustahkamlaydi, balki o'quvchilarni nutqning mavzu bilan bog'liq jihatlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Fonetika so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish, ohangni to'g'ri qo'llash va jumalarning silliq, aniq ifoda eshitilishi uchun muhimdir. Fonetikani o'rganish o'quvchilarda gapirish va tinglash mashqlari orqali yuksak samaradorlikni ta'minlaydi. Fonetik mashqlarni bajarayotganda o'qituvchi o'quvchilarning to'g'ri talaffuz qilishlariga e'tibor qaratishi lozim. Ular ohang, so'z urg'usi, ritm va talaffuzni to'g'ri ishlatishni o'rganadilar. Nutqdagi bu elementlarni to'g'ri qo'llay olish o'quvchilarga ishonch bilan gapirish imkonini beradi, bu esa til o'rganish jarayonini tezlashtiradi. To'g'ri talaffuzni o'rganish tinglashda yanada muhim rol o'ynaydi. O'quvchilar eshitgan nutqning fonetik xususiyatlarini tushunishga va nutqida qo'llash malakasiga ega bo'lishlari lozim. Bu tinglash ko'nikmasini rivojlantirishga yordam beradi. Masalan: O'quvchilarga tovushlar orasidagi farqlarni eshittirish va aniq talaffuzni takrorlashni o'rgatish: ingliz tilidagi /θ/ (th) va /s/ (s) tovushlarini farqlash va to'g'ri talaffuz qilish.

Leksika (so'z boyligi) o'rganishda tilni tushunish va nutq faoliyatini bog'lash muhim. So'zlarning to'g'ri ishlatilishi gapning aniq va ravon bo'lishini ta'minlaydi. Yangi so'zlarni o'rganish va ularni nutqda qo'llay olishni bilish o'quvchilarni amaliyotda leksikadan samarali foydalana olayotganlari belgisidir. So'zlarni turli kontekstlarda ishlatish (masalan, sinonimlar va antonimlar) jumalarni boyitadi va nutqni kengaytiradi. Masalan, o'quvchilarning o'xshash ma'nodagi so'zlarni o'rganishi va ularni turli holatlarda ishlatishni mashq qildiruvchi topshiriqlarni berish.

Shuningdek, so'z boyligini oshirish yozma nutqning aniq va ravon bo'lishini ham ta'minlaydi. O'quvchilar yangi so'zlarni va iboralarni o'z yozma nutqlarida ishlatib, ularga tegishli grammatik va orfografik qoidalarga rioya qilishni o'rganadilar. Masalan, yangi o'rganilgan so'zlardan foydalanib, o'quvchilarga qisqa hikoya yoki insho yozishni topshirish. Bu turdagi mashqlar nafaqat leksikani boyitadi, balki grammatik va fonetik ko'nikmalarni ham mustahkamlaydi.

Bir nechta ko'nikmalarni integratsiya qilgan holda o'quvchilarga mashqlarni bajartirish nutq faoliyatlarining yanada takomillashuviga olib keladi. Yozma va og'zaki mashqlarni birlashtirish, grammatika va leksikaning tushunilishi bilan birga, yozish va gapirish mashqlari o'rtasidagi bog'liqlikni yaratish, o'quvchilarni turli xil sharoitlarda (ma'ruzalar, munozaralar, suhbatlar) o'z til bilimi va ko'nikmalaridan to'g'ri foydalanishga undaydi. Tinglab tushunish va gapirishni birlashtiradigan mashqlar tinglab, so'ngra o'z fikrlarini aytish, o'quvchilarga tinglangan ma'lumotni qayta ishlash va amalda qo'llashni o'rgatadi. Bunda tinglash, gapirish, grammatika va fonetikani integratsiya qilish jarayoni o'quvchini tilni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Til materialini va nutq faoliyatini integratsiya qilishda interaktiv mashqlar samarali natijalar olib keladi. Masalan, o'quvchilarga rol o'ynash orqali gapirish va grammatikani ishlatish, yoki yangi so'zlarni kontekstga mos ravishda qo'llash; simulyatsiya va vaziyat mashqlari — real hayotdagi vaziyatlarga moslashtirilgan mashqlar orqali, o'quvchilarga til materialini va nutq faoliyati turlarini birlashtirish imkonini beradi.

Grammatik, leksik va fonetik mashqlarni nutq faoliyati (gapirish, yozish, o'qish, tinglash) bilan birgalikda o'rgatish o'quvchilarga tilni yanada samarali o'rganishga yordam beradi. Bular bir-birini to'ldirib, tilni tushunish va undan foydalanish o'rtasidagi bog'liqlikni kuchaytiradi. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarning umumiy til ko'nikmalarini yaxshilaydi.

Til o'rganish jarayonida mashqlar, nafaqat grammatika va lug'atni o'rgatish, balki ijtimoiy qobiliyatlarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun mashqlarni tizimlashtirish va to'g'ri klassifikatsiya qilish zarur. Mashqlarni to'g'ri tashkil etish va pedagogik jihatdan samarali qo'llash, o'quvchilarning til o'rganish jarayonidagi muvaffaqiyatini sezilarli darajada oshiradi. Mashqlar turini va ularni qo'llash metodini o'qituvchi diqqat bilan tanlashi lozim.

Har bir o'quvchining o'ziga xos ehtiyojlari va o'rganish usullarini inobatga olish, mashqlarni individuallashtirish va individual yondashuvlarni rivojlantirish zarur.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlarga asoslangan yangi metodologiyalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish til o'rgatish samaradorligini oshiradi.

Til o'rganishda mashqlarni ijtimoiy, madaniy va psixologik kontekstda integratsiyalash zarur. Bu orqali o'quvchilar faqat tilni o'rganibgina qolmasdan, uni ijtimoiy muloqotda samarali qo'llashni o'rganadilar.

Mashqlarni zamonaviy texnologiyalar yordamida interaktiv va qiziqarli qilish, masalan, onlayn platformalar va mobil ilovalar orqali, til o'rganish jarayonini sezilarli darajada takomillashtiradi.

Shunday qilib, maqolada mashqlar nazariyasi va uning pedagogik jihatlarini rivojlantirishga qaratilgan mulohazalarni tahlil qildik. Yuqoridagi fikrlar nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham til o'rgatish jarayonini takomillashtirishga yordam beradi. Mashqlarni samarali tizimlashtirish va turli metodologiyalarni ishlab chiqish til o'rgatishda muvaffaqiyatga erishishning asosi hisoblanadi.

Bundan tashqari, ayrim o'zbek va rus olimlarining mashqlarni tasniflashga oid yondashuvlari ham yoritib berildi. Bu tizimlash va metodologik yondashuvlar chet tili o'qituvchilariga o'quvchilarning til ko'nikmalarini samarali rivojlantirishda yordam beradi. Shuningdek, o'quvchilarni o'qish, yozish, tinglash va gapirish bo'yicha mashqlarni mukammal tashkil qilish muhim. Psixolingvistik yondashuvlar, lingvistik

prinsiplar va situativ mashqlar tizimi til o'rgatishning turli darajalarini hisobga olishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Choriyev M. Ingliz tili leksikasiga o'rgatishning lingvodidaktik va injener-lingvistik asoslari. Avtoref.diss...f.f.n, Qarshi, 1999. — 71 b.
2. Ellis, R. Task-based language learning and teaching. — Oxford University Press, 2003, —387 p.
3. Erkayev E.T. Bo'lajak chet tili muallimi ta'limida qo'llanadigan tarjima mashqlarining lingvodidaktik tasnifi. Diss. ... p.f.n, — Toshkent, 2008. — 156 b.
4. Hoshimov O', Yoqubov I. Ingliz tili o'qitish metodikasi. — Toshkent, 2003. — 304 b.
5. Jalolov J. Chet tili o'qitish metodikasi. — Toshkent: O'qituvchi, 2012. — 432 b.
6. Juraev L. va boshq. Fly High English 5. — Toshkent: Yangiyo'poligrafservis, 2014. — 175 b.
7. Juraev L. va boshq. Fly High English 6. — Toshkent: Yangiyo'poligrafservis, 2013. — 177 b.
8. Krashen S. Explorations in language acquisition and use. — Heinemann, 2003, 103 p.
9. Safarova R.G', Jo'raev R.H. Pedagogik ensiklopediya. 2 jild. — Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2015. — 377 b.
10. Ur P., Wright A. Five minute activities: a resource book of short activities. — Cambridge: Cambridge University Press, 1992, — 101 p.
11. Азимов Э. Г., Щукин А. Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). — М.: Издательство ИКАР, 2009. — 448 с.
12. Бельдиян В.М. Лингводидактика и ее требования к построению системы упражнений // проблемы русской лингводидактики в национальном вузе. Сб. научн. трудов. — М., 1984, — С. 39–50.
13. Бим И.Л. Подход к проблеме упражнений с позиции иерархии целей и задач.// Иностранные языки в школе — 1985. — № 5 — С. 30–37.
14. Джусупов М. Социолингвистические и лингводидактические проблемы языка как средства общения и предмета изучения. Русистика в СНГ. СПб, 2002. — С. 61–74
15. Джусупов М. Межъязыковое и межкультурное контактирование: понятие, слово, психообраз, интерференция // Филологические науки. Научные доклады высшей школы. — 2016. — №5. — С. 22–33.
16. Джусупов, М. Звуковые системы русского и казахского языков: слог. интерференция. обучение произношению. — Ташкент: Фан, 1991. — 239 с.
17. Ильин М.С. Основы теории упражнений по иностранному языку. — Москва «педагогика» 1975. — 152 с.
18. Китайгородская Г.А. Интенсивное обучение иностранным языкам: теория и практика. — Москва, 2009 — 277 с.
19. Лapidус Б.А. Упражнения с ключом для лабораторной и домашней работы к “Практическому курсу английского языка для продвинутого этапа обучения” — Москва: Высш. школа, 1975. — 152 с.
20. Пальмер Г.Е. Устный метод обучения иностранным языкам — М., 1960, — 165 с
21. Пассов Е.И. Основы коммуникативной методики обучения иноязычному общению. — Москва: Русский язык, 1989. — 276 с.
22. Пассов Е.И. Сорок лет спустя или сто и одна методическая идея. — Москва: Глосса-Пресс, 2006. — 240 с.
23. Рахманов И.В. Обучение устной речи на иностранном языке. — Москва: высшая школа, 1980. — 120 с.

References

1. Choriyev M., *Ingliz tili leksikasiga urgatishning lingvodidaktik va injener-lingvistik asoslari. Avtoref.diss...f.f.n* (Linguistic and Engineering-linguistic Foundations of Teaching English Lexicon, Extended abstract of candidate's thesis), Karshi, 1999, 71 p.
2. Ellis R., *Task-based language learning and teaching*, Oxford: Oxford University Press, 2003, 387 p.
3. Erkayev E.T., *Bulajak chet tili muallimi ta'limida qullanadigan tarjima mashqlarining lingvodidaktik tasnifi. Diss. ... p.f.n* (Linguodidactic Classification of Translation Exercises used in the Education of the Future foreign Language Teacher, Extended abstract of candidate's thesis), Tashkent, 2008, 156 p.
4. Hoshimov U, Yoqubov I., *Ingliz tili o'qitish metodikasi* (English Teaching Methodology), Tashkent, 2003, 304 p.
5. Jalolov J., *Chet tili uqitish metodikasi* (Foreign Language Teaching Methodology), Tashkent: Uqituvchi, 2012, 432 p.
6. Juraev L., *Fly High English 5*, Tashkent: Yangiyo'poligrafservis, 2014, 175 p.
7. Juraev L., *Fly High English 6*, Tashkent: Yangiyo'poligrafservis, 2013, 177 p.
8. Krashen S., *Explorations in language acquisition and use*, Heinemann, 2003, 103 p.
9. Safarova R.G., Juraev R.H., *Pedagogik ensiklopediya, 2-jild.* (Pedagogical Encyclopedia, volume 2), Tashkent: Uzbekistan milliy ensiklopediyasi, 2015, 377 p.
10. Ur P., Wright A., *Five Minute Activities: a Resource Book of Short Activities*, Cambridge University Press, 1992, 101 p.
11. Azimov E. G., Shchukin A. N., *Novyi slovar' metodicheskikh terminov i ponyatii* (New Dictionary Methodological Terms and Concepts), Moscow: Izdatel'stvo IKAR, 2009, 448 p.
12. Bel'diyan V.M., *Problemy russkoi lingvodidaktiki v natsional'nom vuze*, 1984, pp. 39–50.
13. Bim I.L., *Inostrannye yazyki v shkole*, 1985, No 5, pp. 30–37.
14. Dzhushupov M., *Sotsiolingvisticheskie i lingvodidakticheskie problemy yazyka kak sredstva obshcheniya i predmeta izucheniya* (Sociolinguistic and linguodidactic problems of language as a means of communication and a subject of study), *Rusistika v SNG*, Saint Peterburg, 2002, pp. 61–74.
15. Dzhushupov M., *Filologicheskie nauki. Nauchnye doklady vysshei shkoly*, 2016, No5, pp. 22-33
16. Dzhushupov M., *Zvukovye sistemy russkogo i kazakhskogo yazykov: slog. interferentsiya. obuchenie proiznosheniya* (Sound Systems of the Russian and Kazakh Languages: Syllable. interference. Pronunciation Training), Tashkent: Fan, 1991, 239 p
17. Il'in M.S., *Osnovy teorii uprazhnenii po inostrannomu yazyku* (Fundamentals of the Theory of Exercises in a Foreign Language), Moscow: pedagogika, 1975, 152 p.
18. Kitaigorodskaya G.A., *Intensivnoe obuchenie inostrannym yazykam: teoriya i praktika* (Intensive Foreign Language Teaching: Theory and Practice.), Moscow, 2009, 277 p.
19. Lapidus B.A., *Uprazhneniya s klyuchom dlya laboratornoi i domashnei raboty k "Prakticheskomu kursu angliiskogo yazyka dlya prodvintogo etapa obucheniya"* (Exercises with a Key for Laboratory and homework for the "Practical English Course for the Advanced Stage of Learning), Moscow: Vyssh. shkola, 1975, 152 p.
20. Pal'mer G.E., *Ustnyi metod obucheniya inostrannym yazykam* (Oral method of teaching foreign languages), Moscow, 1960, 165 p
21. Passov E.I., *Osnovy kommunikativnoi metodiki obucheniya inoyazychnomu obshcheniyu* (Fundamentals of the communicative methodology of teaching foreign language communication), Moscow: Russkii yazyk, 1989, 276 p.
22. Passov E.I., *Sorok let spustya ili sto i odna metodicheskaya ideya* (Forty Years Later or a Hundred and One methodological Ideas), Moscow: Glossa-Press, 2006, 240 p.
23. Rakhmanov I.V., *Obuchenie ustnoi rechi na inostrannom yazyke* (Teaching oral speech in a foreign language), Moscow: vysshaya shkola, 1980, 120 p.